

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 8 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 8 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*  
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА ..... 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО  
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) ..... 18-24
- Раунов Холмамат*  
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ ..... 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*  
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ  
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ  
МИСОЛИДА) ..... 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*  
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI  
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI  
MISOLIDA) ..... 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*  
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР  
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА ..... 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*  
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI  
XIZMATLARI ..... 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*  
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI ..... 60-64

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*  
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF  
ENTERPRISES ..... 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*  
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS ..... 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*  
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ  
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 76-84

<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR .....	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI .....	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ .....	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI .....	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ .....	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI .....	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ .....	138-150
<i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ.....	151-158
<i>Раббимов Жахонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ .....	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ .....	165-174

*Гадоев Сўҳроб Жумакулович*  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ  
ЙЎЛЛАРИ ..... 175-181

*Бекжанов Дилмурод Йўлдашович*  
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН  
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ..... 182-193

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Boydadayev Abdurroхтон Tolibjon o'g'li*  
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY  
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) ..... 194-200

*Xayridinov Abbosxon Anvarovich*  
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA  
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 201-205

*Quramboyev Alisher Maxsudovich*  
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI ..... 206-211

*Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich*  
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR  
MAQSADI..... 212-217

*Turabova Sevara Kattaqulovna*  
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA  
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV ..... 218-224

*Пардаева Марҳабо Давлатовна*  
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ  
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ ..... 225-233

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*  
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI ..... 234-240

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*  
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR ..... 241-246

*Юсупова Феруза Зойировна*  
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ ..... 247-251

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI ..... 252-257

## **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Soatova Nodira Isomitdinovna</i> LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI .....	258-265
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA .....	266-269
<i>Yusupova Omina Muhammadzoir kizi</i> DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE .....	270-276
<i>Бозорова Хулкар Одинакуловна</i> РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ .....	277-282
<i>Matyakubov Oybek Quralbayevich</i> KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI .....	283-288
<i>Фатуллаева Камола Рахматуллаевна</i> ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ .....	289-293
<i>Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna</i> O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI .....	294-299
<i>Xamzayev Otaxon Erkinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	300-305

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Абдурахманова Нодирахон</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ .....	306-310
<i>Сафоева Садокат Мусоевна</i> ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА .....	311-320
<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i> ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ .....	321-330

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Zoirova Lola Xamidovna</i> TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN	
---	--



FOYDALANISH .....	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) .....	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH .....	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS .....	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	362-368
<i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ .....	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR .....	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING .....	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI .....	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR .....	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI .....	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS .....	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI .....	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD .....	434-441
<i>G‘ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR .....	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSINAL TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH .....	461-469

*08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари*

**Turobov Sherzod Alisherovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Email: [sh.turobov@gmail.com](mailto:sh.turobov@gmail.com)

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO‘JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI**

**Annotatsiya.** Maqolada uy xo‘jaliklari tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosati va uning yo‘nalishlari haqida fikr yuritilgan. Uy xo‘jaliklari faolligini oshirish usullari va uning O‘zbekiston Respublikasidagi amaliyoti yoritilgan. Qashqadaryo viloyatida uy xo‘jaliklari tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili keltirilgan. Uy xo‘jaliklari tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosatini samarali tashkil etish bo‘yicha takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** uy xo‘jaligi, tadbirkorlik, siyosat, rag‘batlantirish, biznes, qo‘llab-quvvatlash, omillar, usullar, davlat siyosati.

---

**Turobov Sherzod Alisherovich**

Senior lecturer of the department "Accounting and Audit"

Karshi engineering economics institute

### **STATE POLICY IN DEVELOPING HOUSEHOLD ENTREPRENEURSHIP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Absrtact.** The article discusses the state policy and its directions in the development of home business. The methods of increasing the activity of the household and its practice in the Republic of Uzbekistan are highlighted. An analysis of ongoing activities to develop home-based entrepreneurship in the Kashkadarya region is presented. Suggestions for the effective organization of state policy in the field of home business development are given.

**Key words:** household, entrepreneurship, politics, stimulation, business, support, factors, methods, public policy.

---

**Туробов Шерзод Алишерович**

Старший преподаватель кафедры «Бухгалтерский учет и аудит»

Каршинского инженерно-экономического института

### **ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА В РАЗВИТИИ ДОМОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**Аннотация.** В статье рассматривается государственная политика и ее направления в развитии домашнего предпринимательства. Освещены методы повышения активности домохозяйства и его практика в Республике Узбекистан. Представлен анализ проводимых мероприятий по развитию домашнего предпринимательства в Кашкадарьинской области. Даны предложения по эффективной организации государственной политики в области развития домашнего предпринимательства.

**Ключевые слова:** домашнее хозяйство, предпринимательство, политика, стимулирование, бизнес, поддержка, факторы, методы, государственная политика.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N14>

**Kirish.** Bugun jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlarida turli inqiroz oqibatlari davom etib, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu singari salbiy holatlarning oldini olish uchun fuqarolarning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, tomorqalardan unumli foydalanish evaziga ko'proq mahsulot yetishtirish tizimini barpo etish dolzarb masala hisoblanadi. Buning uchun uy xo'jaliklari ixtiyoridagi tomorqa yerlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish tizimini yo'lga qo'yish hamda uy xo'jaliklari faolligini oshirish hisobiga ular tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bu kabi dolzarb muammolarning hal etilishi aholining daromadlarini oshishiga, ishsizlik darajasining kamayishiga, kambag'allikning qisqarishiga, sog'lom turmush tarzining yuritilishiga, davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi xarajatlarning kamayishiga, davlat byudjeti daromad qismining oshishiga va ichki investitsiyalash hajmining ko'payishiga olib keladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Rossiyalik iqtisodchi olimlar G.M. Sinchenko va I.S. Orlovalarning fikriga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi viloyat va tumanlar iqtisodiyotining tarmoq ixtisoslashuviga ta'sir qilishini hisobga olish kerak [8; B. 183.].

Tadqiqotchi H.R.Turobovaning fikricha davlat tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ma'muriy usullar yordamida tartibga solsa, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida ularni qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshiradi [9; B. 126.].

Indiana universiteti professori David B. Audretsch davlat siyosatining tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borgan. U asosan shahar, viloyat va mintaqa bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosati qanday o'rin tutishi mumkinligi haqida tadqiqotlar olib borgan [1; B. 56.].

Amerikalik iqtisodchi Zoltan J. Acs davlat siyosati va tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha tadqiqot olib borib, u tadqiqotlarida tadbirkorlik, innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratadi. "The Entrepreneurial Advantage of World Cities" nomli ilmiy maqolasida dunyo shaharlarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning afzalliklari va ularning tadbirkorlarni jalb qilish va innovatsiyalarni rag'batlantirishdagi rolini o'rganadi [2; B. 13.].

Uy xo'jaliklarini mikrodarajadagi ahamiyati, xususan, uning moliyaviy-iqtisodiy vazifalari, ishlab chiqarish (dehqon xo'jaliklari sifatida) hamda oila tadbirkorligi muammolarini G.Samiyeva ilmiy tadqiqotlarida o'rganagan [7; B. 9.].

O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosatini tadqiq etishda ma'lumotlarni kuzatish, jamlash, tahlil qilish, analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi. Xorij va O'zbekiston Respublikasidagi mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil etildi. Qashqadaryo viloyati uy xo'jaliklari faoliyati va imkoniyatlari tadqiq etildi.

**Muhokama.** Uy xo'jaliklarining tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha faolligini oshirish muayyan chora-tadbirlarni ko'rish va tegishli infratuzilmani yaratishni taqozo etadi. Uy xo'jaliklari faolligini oshirish jarayoniga yordam beradigan bir necha usullar mavjud:

– ta'lim va tarbiya: ta'lim va tarbiya olish imkoniyatini ta'minlash uy xo'jaliklarida tadbirkorlik uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda moliyaviy savodxonlik, biznes boshqaruvi, marketing va tadbirkorlikning boshqa asosiy jihatlari bo'yicha dasturlarni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida qator samarali mexanizmlar ishlab chiqilmoqda, jumladan qishloq xo'jaligi bo'yicha kadrlar bilim, malaka va ko'nikmalarini manzilli shakllantirish maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi, Toshkent davlat agrar universiteti, Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti huzurida Buyuk Britaniya ta'lim tizimi asosida ixtisoslashgan xalqaro maktab tashkil etilib, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab o'quvchilarni qabul qiladi hamda maktab faoliyati Jahon bankining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish" loyihasi doirasida moliyalashtiriladi [3.].

– moliyaviy yordam: mikrokreditlar yoki grantlar kabi arzon va moslashuvchan moliyaviy vositalarni taqdim etish uy xo'jaliklariga o'z bizneslarini boshlash yoki rivojlantirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, o'z mablag'lari yoki an'anaviy moliyaviy xizmatlardan foydalana olmaydigan kam ta'minlangan oilalar uchun muhim hisoblanadi. "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturiga asosan tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini 2023 yilda moliyalashtirish uchun oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi koordinatorlari 2023 yil yakuniga qadar oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan 1 trln. so'm yo'naltirilgan [4.].

– texnik qo'llab-quvvatlash: maslahat, trening va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'rinishida texnik yordam ko'rsatish uy xo'jaliklarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga va biznesni boshqarishning zamonaviy vositalaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Respublikada kambag'allikka qarshi kurashish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, bu ishlarga tadbirkorlik subyektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb qilish va ularga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida tadbirkorlar bilan ular yaratadigan ish o'rnidan kelib chiqib mahalliy hokimiyat organlari va tegishli vazirliklar bilan hamkorlik shartnomalari tuzilmoqda. Bu yo'nalishda tadbirkorlarga soliq va kredit imtiyozlari berildi [5.];

– tarmoq tashkil etish va o'zaro hamkorlik: uy xo'jaliklari o'rtasida tarmoq va hamkorlikni qo'llab-quvvatlash tajriba, resurslar va bilim almashishni osonlashtiradi. Bu, ayniqsa, tadbirkorlar hamjamiyatini mustahkamlash va jamoaviy rivojlanish va o'sish uchun imkoniyatlar yaratadi;

– ma'muriy qonun-qoidalarni soddalashtirish: byurokratik tartib-taomillarni qisqartirish, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalashni soddalashtirish tadbirkorlikka kirishdagi to'siqlarni kamaytirib va uy xo'jaligi faoliyatini rag'batlantiradi;

– marketingni qo'llab-quvvatlash: brendni rivojlantirish, mahsulotni realizatsiya qilish va bozorga kirish kabi marketing vositalari va resurslariga kirishni ta'minlash uy xo'jaliklariga o'z mahsulot va xizmatlarini samarali sotishga yordam beradi;

– soliq imtiyozlari va preferensiyalari: ishbilarmon uy xo'jaliklari uchun soliq imtiyozlari yoki preferensiyalarini joriy etish moliyaviy to'siqlarni kamaytirish va biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish orqali faollik va o'sishni ta'minlaydi.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning barchasi uy xo'jaliklari faolligini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, uy xo'jaliklari faolligini oshirishda infratuzilmalarning rivojlanganligi, uy xo'jaliklarining xususiy sektor bilan hamkorligi, tadbirkorlikning diversifikatsiyalangan shakllarining rivojlantirilishi, yordam tarmoqlarining yaratilganligi, axborot va ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi, uy xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlovchi maxsus dastur va tashabbuslarning ishlab chiqilganligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish, tadbirkorlik sohasi va uy xo'jaliklarining ehtiyojlarini o'rganish va tahlil qilish muhim hisoblanadi.

**Natijalar.** Qashqadaryo viloyatida uy xo'jaliklari faolligini oshirish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va islohotlar samarasi haqida quyidagi natijalarga ega bo'ldik: 2022 yilda 9,2 ming gektar yer maydonlarida 19,9 ming ta dehqon xo'jaliklari tashkil qilinib, shundan 1529 gektar yer maydonlarida 3566 nafar "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turgan ehtiyojmand oilalar, 738 gektarda 1057 nafar xorijdan qaytgan mehnat migrantlariga yer maydonlari birlashtirildi. "Bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida aholiga ajratilgan 9,2 ming gektar maydonlarning 1,9 ming gektariga sabzavot, 1,4 ming gektariga poliz, 1,1 ming gektariga kartoshka, 1,6 ming gektariga moyli-dukkakli va 3,2 ming gektariga boshqa ekinlar ekildi.

Mazkur ekin maydonlaridan jami 146,7 ming tonna, jumladan 45,8 ming tonna sabzavot, 23,3 ming tonna kartoshka, 31,5 ming tonna poliz, 2,1 ming tonna moyli, 1,1 ming tonna dukkakli va 45,1 ming tonna boshqa mahsulotlar yetishtirildi.

2023 yilda paxta-g'alladan qisqargan yer maydonlarida dehqon xo'jaliklari tashkil qilish orqali aholining bandligini ta'minlash maqsadida 10,5 ming gektar yer maydonlari lotlarga bo'linib, 22 mingta dehqon xo'jaliklari tashkil qilinishi rejalashtirilgan.

Bu yilgi yo'l qo'yilgan kamchiliklardan xulosa qilgan holda kelgusi yilda tarqatiladigan yer maydonlarini tanlashda aholi punktlariga yaqin, suv ta'minoti bor, unumdor 864 gektar yerlar tuman hokimliklari zaxirasiga qaytarildi.

2022-2023 yillarda aholi bandligini ta'minlash uchun ajratilgan 19,8 ming gektar dehqon xo'jaliklarining 5,1 ming gektariga sabzavot, 5,8 ming gektariga poliz, 2,2 ming gektariga kartoshka, 2,2 ming gektariga dukkakli, 4,7 ming gektariga moyli ekinlar konturlar kesimida joylashtirildi.

Joriy yilda 4783 ta dehqon xo'jaliklari tomonidan 2520 gektar maydonga, jumladan 741 gektarga avgust-piyoz va sarimsoqpiyoz, 1779 gektarga to'qsonbosti usulida sabzavot ekinlari ekish rejalashtirilib, hozirgi kunda to'liq ekish ishlari yakunlandi.

Viloyat aholisi 3 mln. 431 nafar kishini tashkil qilib, aholi yiliga o'rtacha 82 ming nafarga yoki 2,2 foizga o'sib bormoqda.

Aholi iste'moli uchun bir yilda 411 ming tonna un va un mahsulotlari, 33 ming tonna guruch, 328 ming tonna kartoshka, 116 ming tonna piyoz, 116 ming tonna sabzi, 146 ming tonna go'sht (mol va qo'y), 64 ming tonna parranda go'shti, 828 mln.dona tuxum, 1377 ming tonna sut, 45,7 ming tonna baliq, 31 ming tonna yog', 38 ming tonna shakar, 59 ming tonna poliz, 250 ming tonna meva talab etiladi.

### 1-jadval

#### Qashqadaryo viloyati tomorqa yer egalari haqida ma'lumot [6]

T/R	Tuman (shahar)lar nomi	MFY lar soni	Tomorqa yer egalari soni	Jami ekin maydoni	Tomorqa xizmati MCHJlar soni
-----	------------------------	--------------	--------------------------	-------------------	------------------------------

1	Qarshi tumani	58	53 805	4 770	11
2	Yakkabog'	62	52 561	6 167	14
3	Mirishkor	40	20 230	2 832	27
4	Dehqonobod	54	27 001	4 031	6
5	Muborak	25	14 286	1 593	12
6	Kasbi	42	36 277	4 001	18
7	Nishon	36	27 229	3 281	20
8	Koson	75	54 140	6 725	15
9	Qamashi	60	45 865	7 674	9
10	Chiroqchi	59	43 186	6 778	20
11	Ko'kdala	37	33 264	4 672	
12	G'uzor	51	38 696	2 615	8
13	Kitob	59	54 455	4 955	9
14	Shahrisabz tumani	57	49 045	4 835	19
15	Shahrisabz shahri	40	25 848	342	6
16	Qarshi shahri	64	35 571	674	12
<b>Jami:</b>		<b>819</b>	<b>611 459</b>	<b>65 945</b>	<b>206</b>

Aholi tomorqalarida 29,8 ming gektar takroriy, jumladan, 10,1 ming gektar sabzavot, 2,4 ming gektar kartoshka, 5,6 ming gektar poliz, 4,3 ming gektar dukkakli va moyli hamda 7,5 ming gektar boshqa ekinlar ekildi.

2023 yilda viloyatda chorvachilik yo'nalishlarida dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, qiymati 1,0 trln.so'mlik 347 ta, jumladan qoramolchilikda 592,5 mlrd.so'mlik 158 ta, qo'y va echkichilikda 195 mlrd.so'mlik 75 ta, parrandachilikda 110 mlrd.so'mlik 50 ta, baliqchilikda 100 mlrd.so'mlik 40 ta, yilchi va tuyachilikda 2,3 mlrd.so'mlik 4 ta, asalarichilikda 5,5 mlrd.so'mlik 14 ta, quyonchilikda 9,7 mlrd.so'mlik 6 ta loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada 10 ming bosh qoramol, 25 ming bosh qo'y-echki, 700 bosh yilqi va 800 bosh tuya bosh soni ko'payadi, paxta-to'qimachilik klasterlarida 500-1000 boshga mo'ljallangan 15 ta yirik chorvachilik komplekslari ishga tushadi.

Viloyatda 390 ta subyektlarning 462 gektar yer maydonida issiqxona mavjud. Shundan 369 ta subyektlarning 358 gektaridagi issiqxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan 369 ta (368 gektar) issiqxonalarining 20 tasi (97 gektar) gidroponik va 349 tasi (261 gektar) oddiy usulda qurilgan.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 358 gektar issiqxonaning 166 gektariga pomidor, 122 gektariga bodring, 64 gektarida limon, 1 gektarida ko'kat, 5 gektarida boshqa ekinlar parvarishlanmoqda.

Aholi xonadonlarida joriy yilda Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog' va Qamashi tumanlarida aholi tomorqalariga 1417 gektar uzum ko'chatlari ekildi.

Joriy yil bahorda aholi tomorqalarida 60,2 ming gektar ertaki, jumladan, 20,7 ming gektar sabzavot, 6,1 ming gektar kartoshka, 10,6 ming gektar poliz, 10,2 ming gektar dukkakli va moyli hamda 12,6 ming gektar boshqa ekinlar ekildi.

Qashqadaryo viloyatida 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 819 ta MFYlarida 611459 ta tomorqa yer egalari istiqomat qiladi. Tomorqa yer egalari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 206 ta tomorqa xizmati MCHJlari xizmat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, aholi tomorqalarida 29,8 ming gektar takroriy, jumladan, 10,1 ming gektar sabzavot, 2,4 ming gektar kartoshka, 5,6 ming gektar poliz, 4,3 ming gektar dukkakli va moyli hamda 7,5 ming gektar boshqa ekinlar ekildi.

Bundan tashqari kelgusi yil hosili uchun aholi tomorqalariga avgust-sentabr oylarida 7 ming 550 gektar (piyoz 4,8 ming ga, sarimsoqpiyoz 2,6 ming ga) va noyabr-dekabr oylarida 16 ming 772 gektar (piyoz 3,8 ming ga, sabzi 6 ming ga, osh lavlagi 766 ga, ko'katlar 4,7 ming ga, karam 1,5 ming ga) "to'qsonbosti" usulida eksportbop sabzavot ekinlari ekildi.

Joriy yilda aholi tomorqa yerlarida 19200 ta 1-2 sotixli ixcham issiqxonalar tashkil etilib, sabzavot va sitrus mevali ko'chatlar yetishtirish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek respublika kengashi huzuridagi jamg'arma mablag'lari hisobidan hokim yordamchilarining bergan tavsiyanomasiga asosan tijorat banklari orqali 638 ta xonadonga 18,9 mlrd.so'mlik 9450 bosh chorva mollari, 62 ta xonadonga 1,8 mlrd.so'mlik 21,2 ming bosh parranda, 69 ta xonadonga 2 mlrd. so'mlik 25 ming quti asalari boqish yo'lga qo'yildi [6].

**Xulosa.** Uy xo'jaliklari tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosatida muhim o'rin tutadi. To'g'ri ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan davlat siyosati uy xo'jaliklari tadbirkorligi uchun qulay muhit va rag'batlarni yaratishi mumkin. Bu ish o'rinlari yaratish, oilalar daromadini oshirish, qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin. Davlat siyosatini shakllantirishda ma'lum bir mamlakat yoki mintaqaning xususiyatlarini hisobga olish va uy xo'jaliklari duch keladigan ehtiyoj va muammolarni hisobga olish muhimdir.

Olib borilgan tadqiqotlarimizga asosan uy xo'jaliklari tadbirkorligini rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- qulay qonunchilik va tartibga solish muhitini yaratish: davlat shaffoflikni, mulk huquqi va tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishni ta'minlaydigan tegishli qonun va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi kerak. Tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish va litsenziya olish tartib-taomillarini soddalashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi;

- moliyadan foydalanish imkoniyatini ta'minlash: davlat siyosati uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslarga, shu jumladan mikromoliya, kreditlar va grantlarga kirishini osonlashtirishi kerak. Mahalliy moliya institutlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, uy xo'jaliklari tadbirkorligini rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan moliyaviy vositalarni yaratish bu jarayonda muhim o'rin tutadi;

- bozorga kirishni va mahsulotni realizatsiya qilishni ta'minlash: Davlat siyosati bozorlarni yaratish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashi, bozor imkoniyatlari va talablari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi va uy xo'jaliklari tadbirkorlarining mahsulotlarini saqlash va sotishga yordam berishi kerak;

- ta'lim va tarbiya: davlat siyosati uy xo'jaliklari uchun ta'lim va tarbiya berish orqali tadbirkorlik bo'yicha ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishi kerak. Tadbirkorlik, biznes boshqaruvi, marketing va moliya bo'yicha treninglar muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishga va kasbiy vakolatlardan samarali foydalanishda yordam beradi;

- hamkorlik va tarmoqni rivojlantirish: davlat siyosati uy xo'jaliklari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro tajriba, resurslar va ma'lumot almashishi mumkin bo'lgan kooperativlar, uyushmalar va tarmoqlarni shakllantirishni rag'batlantirishi kerak. Bu yanada barqaror va raqobatbardosh biznes sektorini yaratishga yordam beradi;



- siyosat samaradorligini monitoring qilish va baholash: uy xo'jaliklari tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosatining samaradorligini monitoring qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. Bu muvaffaqiyatli yondashuvlarni aniqlashga, strategiyalar va resurslarni taqsimlashga tuzatish kiritishga hamda siyosatni amalga oshirishda shaffoflik va javobgarlikni ta'minlashga yordam beradi.

Bu takliflarning davlat siyosati doirasida hayotga tatbiq etilishi uy xo'jaliklari tadbirkorligini rivojlantirish, uy xo'jaliklari faolligini oshirish va iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Audretsch, D. B. (2015). Everything in its place: Entrepreneurship and the strategic management of cities, regions, and states. Oxford University Press. 159 p.
2. Acs, Z., Bosma, N., & Sternberg, R. (2008). The entrepreneurial advantage of world cities. *Zoetermeer: EIM (Working Paper H200810)*. 31 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.07.2023 yildagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.07.2023 yildagi "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 279-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.06.2023 yildagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-son Farmoni.
6. Qashqadaryo viloyati Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining hisobot ma'lumotlari. -Qarshi, 2023. 48 b.
7. Samiyeva G.T. Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2019. -22 b.
8. Цинченко Галина Михайловна, & Орлова Инна Степановна (2020). Государственная политика в сфере развития малого и среднего бизнеса. Вопросы управления, (3 (64)), 181-195.
9. Turobova H.R. Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish. I QISM. O'quv qo'llanma. Buxoro Davlat universiteti, Buxoro, 2021, 190 bet.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).